

O'ZBEK SHE'RIYATIDA "YANGILANGAN" AYOL OBRAZI

Jamoldinova Risola Qobiljon qizi

Andijon davlat universiteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek she'riyatida "yangilangan" ayol obrazi badiiy-estetik hamda ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Yangi davr shoirleri ijodida ayol timsolining erkin fikrlovchi, irodali va ichki dunyosi boy shaxs sifatidagi tasviri yoritiladi. Tadqiqot davomida ayol obrazi o'zbek jamiyatining madaniy transformatsiyasi hamda mustaqillik davrida shakllangan yangi ijtimoiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Maqolada zamonaviy she'riyatda ayolning ichki iztiroblari, ruhiy mustaqilligi va estetik ideal sifatidagi o'rni badiiy misollar asosida tahlil qilib beriladi.*

Kalit so'zlar: *o'zbek she'riyati, ayol obrazi, zamonaviylik, badiiy tafakkur, erkinlik, shaxs, estetik ideal.*

21-asr o'zbek adabiyoti, xususan, she'riyati inson ruhiyati, ichki iztiroblari va shaxs erkinligini badiiy ifoda etish borasida yangi bosqichga ko'tarilgan. Mustaqillik yillarida shakllangan yangi ijtimoiy tafakkur, axborot asrining estetik qadriyatlari hamda gender masalalarining ochiq muhokama qilinishi ayol obrazining talqiniga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol timsoli endilikda nafaqat "ona", "muhabbat ramzi" yoki "fidoyilik belgisi", balki mustaqil fikrga ega, jamiyatdagi o'rnini anglayotgan va ichki erkinligini qadrllovchi shaxs sifatida tasvirlanmoqda. Mazkur jarayon o'zbek jamiyatida kechayotgan ma'naviy yangilanish va qadriyatlar tizimidagi transformatsiya bilan uzviy bog'liqdir. XX asr o'zbek she'riyatida ayol obrazi ko'proq an'anaviy ijtimoiy rollarda - ona, mehr, sadoqat, fidoyilik timsoli sifatida yoritilgan bo'lsa, XXI asrda bu obraz kengaygan, falsafiy jihatdan chuqurlashgan. Endilikda ayolning so'zi - bu jamiyatdagi o'zgarishlar, erkinlik, individual fikr va ichki qarama-qarshiliklar ifodasidir.

An'anadan zamonaviyatga: ayol obrazining shakllanish bosqichlari

Zulfiya, Saida Zunnunova va Halima Xudoyberdiyeva kabi shoirlar ijodida ayol obrazi, asosan, mehr, sadoqat va or-nomus timsoli sifatida talqin etilgan. Ularning she'riyatida ayol millatning ma'naviy qiyofasini ifodalovchi, Vatan va farzand yo'lida fidoyilik ko'rsatadigan ona sifatida gavdalanadi. XXI asrga kelib esa bu tasvir muayyan transformatsiyaga uchradi: ayol timsoli endilikda jamiyatning faol subyekti, o'z pozitsiyasiga ega, hayotiy qarashlari va shaxsiy erkinligini himoya qiluvchi obraz sifatida namoyon bo'lmoqda. Zebo Mirzo va Mehrinoz Abbosova ijodida ayol hayot va san'at o'rtasida yashovchi, jamiyatdagi befarqlikka qarshi o'z so'zi bilan kurashuvchi hamda ruhiy mustaqillikka intiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Shu jihatdan, zamonaviy o'zbek she'riyati psixologik modernizmga xos estetik tamoyillarga yaqinlashayotganini kuzatish mumkin.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol obrazi ko'pincha ichki monolog, psixologik kontrast, ramz va metaforalar vositasida yoritiladi. Shoiralar o'z asarlarida ruhiy kechinmalar, jamiyat bilan ziddiyat, sevgi va yolg'izlik o'rtasidagi ichki muvozanatni badiiy shaklda ifoda etadilar. Bu jarayonda ayol obrazi shunchaki hissiy qahramon emas, balki murakkab ruhiy dunyoga ega shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

Xurshid Davron ijodida ham ayol timsoli va muhabbat mavzusi o'ziga xos tarzda talqin etilgan. Shoirning "Qanday og'ir sizdan ayrilmoq" satrlaridan iborat she'rida oshiq yigitning ruhiy iztirobi ayol jilmayishi ortidagi befarqlik va o'yinga aylangan muhabbat fonida yoritiladi:

"Qanday og'ir sizdan ayrilmoq!
Jilmayasiz ko'zinga boqib.
Toqatimni qildingiz-ku toq,
Ermak uchun qalbimni yoqib."

Bu misralarda qizning jilmayishi tashqi xotirjamlik ramzi sifatida talqin qilinadi, ammo u aslida ayriliq iztirobini chuqurlashtiruvchi psixologik kontrastni hosil qiladi. Oshiq yigit uchun esa bu ziddiyat tush va haqiqat, quvonch va qayg'u, kecha va kunduz o'rtasidagi chegaraning yo'qolishiga olib keladi. Shu tarzda shoir sevgi kechinmalarini inson ruhiyatining nozik qatlamlari bilan uyg'un holda tasvirlaydi.

Shu bilan birga, zamonaviy o'zbek she'riyatida erkak shoirlar ijodida ham ayol obraziga nisbatan yangi estetik yondashuvlar kuzatiladi. Usmon Azim, Jamol Kamol va Shavkat Rahmon kabi ijodkorlar ayolni endilikda faqat "ilhom manbai" sifatida emas, balki insoniylikning ma'naviy o'zagi, hayot falsafasining markaziy timsoli sifatida talqin etadilar. Usmon Azimning "Ko'zlaringdan sochilgan tonglar" satrlarida ayol yangilanish, umid va hayotning o'zini ifodalaydi. Shavkat Rahmon she'riyatida esa ayol timsoli inson qalbinning eng nozik qatlamlarini sevgi, iztirob, kechirim va ichki qudrat uyg'unligini badiiy tarzda aks ettiradi. Bu holat ayol obrazining faqat ayol shoiralar emas, balki erkak adiblar tafakkurida ham chuqur falsafiy mazmun kasb etganini ko'rsatadi.

21-asr o'zbek she'riyatida ayol obrazi ijtimoiy ongning faol ishtirokchisi sifatida talqin etilmoqda. Ayolning o'z qadrini anglash jarayoni inson erkinligi, shaxsiy huquqlarni qadrlash va ma'naviy yangilanish kabi ijtimoiy-falsafiy masalalar bilan uzviy bog'liqdir. Zamonaviy shoiralar ijodida ayolning ichki ovozini eshitish, uning ruhiy kechinmalarini jamiyat kontekstida anglashga intilish kuchaygan. Bu holat o'zbek adabiyotida "ayol nigohi" (female gaze) shakllanayotganining yaqqol dalilidir.

Endilikda ayol obrazi jamiyatdagi befarqlik, adolatsizlik yoki e'tiborsizlikka qarshi ochiq qarshilik orqali emas, balki so'zning kuchi, ma'naviyatning qudrati va ichki qat'iyati orqali namoyon bo'ladi. Uning "sokinligi" bu sustkashlik emas, balki chuqur tafakkur, ichki qaror va ma'naviy qarshilik ramzidir. Shu jihatdan zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol timsoli falsafiy-estetik darajada yangicha talqin topganini kuzatish mumkin.

Bunday badiiy ifoda ayolning tashqi itoatkorligi ortida yashiringan kuchni, ichki uyg'onish jarayonini ko'rsatadi. U jamiyatda "jim qoluvchi" emas, balki o'z sukuti bilan ham o'zgarish keltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu boisdan "sokinlik" o'ziga xos passiv qarshilik shakliga aylanadi bu G'arb adabiyotida "silent protest" deb ataladigan tushunchaning o'zbekcha, ma'naviy tus olgan talqinidir. Zamonaviy o'zbek she'riyatida bu kabi holatlar ayol obrazining yangicha ijtimoiy talqinini yuzaga keltiradi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadiki, zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol endilikda shunchaki sevuvchi, kutuvchi yoki sabr timsoli emas, balki o'z taqdirini ongli ravishda boshqaruvchi va o'z qadriyatlarini himoya qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. U jamiyatdagi o'zgarishlarga befarq emas, biroq o'z e'tirozini ochiq qarshilik orqali emas, balki so'z, san'at va madaniyat vositasida ifodalaydi. Shu tariqa, so'z ayol uchun qurol, she'r esa uning ovozig aylanadi.

Mazkur tendensiya nafaqat ayol shoirlar, balki erkak ijodkorlar ijodida ham kuzatilmoqda. Zamonaviy shoirlar ayol ruhiyatini tasvirlashda uni endi "zaiif" emas, balki ruhiy jihatdan kuchli, hayot sinovlariga bardoshli timsol sifatida talqin etmoqdalar. Bu holat o'zbek adabiyotida ayolga nisbatan qarashlarning demokratlashgani va ijtimoiy tafakkurning yangilanganidan dalolat beradi.

Natijada "sokinlik" tushunchasi badiiy adabiyotda oddiy hissiy holatdan chiqib, ijtimoiy-falsafiy g'oya darajasiga ko'tariladi. Ayolning so'zsiz qarshiligi – bu o'zligini yo'qotmaslik, "men"ini saqlab qolish va jamiyatdagi o'z o'rnini topish yo'lidagi ma'naviy kurashning badiiy ifodasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акрамов Б. Оламнинг бутунлиги. - Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1988-Б.99.
2. Адабиёт назарияси. Икки томлик. - Тошкент: Фан, 1978. - Т.1. - 416 б; 1979. -Т.2. - 445 б.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. - Тошкент: Ўзбекистан, 2002. -560 б.
- 5.. Даврон Хуршид. Бахррдан бир кун олдин. - Тошкент: Шарк, 1997. - Б.18.
- 4.<http://t-science.org/arxivDQI/2021/06-98/06-98-46.html>
- 5.<http://t-science.Org/arxivDQI/2019/11-79/11-79-18.html>
- 6.<https://repo.journalnx.com/index.php/nx/article/view/3758/3615>